



XORAZM VILOYATIDA IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDA YASHIL IQTISODIYOTNING IQTISODIY AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20737680>

Kurbanbayev Shohruhmirzo Zafar o‘g‘li

Ma‘mun Universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Hozirgi zamonaviy dunyoda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi o‘zining nafaqat atrof-muhit muhofazasi va ekologik mo‘tadillikni ta‘minlashning asosiy yechimi sifatida qaralmoqda, balki ushbu tushuncha yurtimiz va uning viloyatlarida iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning eng muhim omili ekani ilmiy tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topmoqda. Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyot mintaqaning barqaror iqtisodiy o‘shini ta‘minlashining bir qancha ilmiy tasdiqlari va Xorazm mintaqasida joriy qilish bo‘yicha takliflar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, iqtisodiy o‘shish, barqaror iqtisodiy o‘shish, hududlar iqtisodiyoti, yashil texnologiyalar, yashil ish o‘rinlari, CO₂ gazlari, chiqindilarni boshqarish, organic mahsulotlar.*

Аннотация: *В современном мире концепция «зелёной экономики» рассматривается не только как важный инструмент охраны окружающей среды и обеспечения экологического баланса, но и как один из ключевых факторов обеспечения экономической устойчивости страны и её регионов, что подтверждается научными исследованиями. В данном исследовании на научной основе раскрыта роль зелёной экономики в обеспечении устойчивого экономического роста региона, а также разработаны практические предложения по её внедрению в Хорезмском регионе.*

Ключевые слова: *зелёная экономика, экономический рост, устойчивый экономический рост, региональная экономика, зелёные технологии, зелёные рабочие места, CO₂, управление отходами, органическая продукция.*

Abstract: *In the modern world, the concept of a “green economy” is considered not only as an important tool for environmental protection and maintaining ecological balance, but also as one of the key factors in ensuring economic stability in a country and its regions, as confirmed by scientific research. This study examines the role of the green economy in ensuring sustainable economic growth of the region on a scientific basis and proposes practical recommendations for its implementation in the Khorezm region.*



Keywords: *green economy, economic growth, sustainable economic growth, regional economy, green technologies, green jobs, CO₂ emissions, waste management, organic products.*

KIRISH

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi, aholi turmush darajasining oshishi bu mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish doirasida turli tarmoq va sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasining ko'rsatkichidir. Iqtisodiy o'sishga erishish amalda barcha iqtisodiy tizimlardagi ijtimoiy muammo bo'lgan jamiyat farovonligini ta'minlash va mamlakatning ishlab chiqarish quvvatlari va aholi turmush tarzida o'z ifodasini topadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yil 14-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining majlisida so'zlagan nutqida "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti bilan bog'liq barcha xavflarni shuningdek milliy valyutaning va bozordagi mahsulot narxlarini barqaror darajada bo'lishini ta'minlash – oldimizga qo'ygan bosh maqsadimizdir" deb ta'kidlagan edilar.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqada barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda dast avval iqtisodiy o'sishni mazmun mohiyatini, shuningdek, barqaror iqtisodiy o'sish tushunchasini va unga erishishda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining ahamiyati bevositaligi ko'plab olimlar va tadqiqotchilar, jumladan, iqtisodchi olimlardan Adam Smith, Simon Kuznets, Solow R,

MacMillanlar[2,3,7,9] tomonidan tadqiq qilingan, o'rganilgan va takomillashtirilgan. Yashil iqtisodiyot mexanizmlarini hududlar iqtisodiyotiga joriy qilish va uni rivojlantirish muammolari MDH mamlakatlari olimlaridan D. V. Manturov[8] va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish, barqarorlik va yashil iqtisodiyot ahamiyati va ularning bog'liqligi borasida mikro, mezzo va makro darajada A. O'lmasov, A. Vaxobov, A.SH. Bekmurodov, U.V. G'afurov, A. Mo'minovlar[4,5,6] tomonidan chuqur tadqiq qilingan.

TADQIQOT

METODOLOGIYASI

Yashil iqtisodiyotning mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlariga ta'siri, xususan, yashil iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarda uning samaradorligini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy tahlil, monografik kuzatuv, qiyoslash, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Maqolaning nazariy va uslubiy asosini mahalliy va xorijiy olimlar va amaliy iqtisodchilarning hududlar rivojlanishida an'anaviy iqtisodiyot muammolarini o'rganishning bozor mexanizmini amal qilishini tartibga solish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yashil iqtisodiyot tendensiyalari asosida uni



rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlash muammolariga bag‘ishlangan ishlari tashkil etdi. Shuningdek maqolada metodologik yondashuvining o‘ziga xosligi sifatida *sistemali yondashuv, taqqoslama tahlil va barqaror rivojlanish nazariyalari* asos qilib olingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Barqaror iqtisodiy o‘shish” tushunchasiga ilmiy izoh berishdan oldin

1-jadval

Iqtisodiy o‘shish tushunchasiga turli xil ilmiy yondashuvlar

T/r	Muallif	Ta‘rif
1.	Adam Smith	Iqtisodiy o‘shish - mehnat taqsimoti yo‘li bilan mehnat unumdorligini oshirishdan, kapital jamg‘arish yo‘li bilan unumdor mehnatni oshirishdan iborat.[2]
2.	Simon Kuznets	Mamlakatning iqtisodiy o‘shishi o‘z aholisini tobora xilma-xil iqtisodiy tovarlar bilan ta‘minlash qobiliyatining uzoq muddatli o‘shishi sifatida belgilanishi mumkin, bu ilg‘or texnologiyalar va u talab qiladigan institutsional va mafkuraviy tuzatishlar asosida o‘shib borayotgan salohiyat.[3]
3.	A. O‘lmasov, A. Vaxobov	Iqtisodiy o‘shish iqtisodiyotning rivojlanishi, ya‘ni hayotiy ne‘matlar bo‘lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishining ko‘payib borishidir[4]
4.	A.SH. Bekmurodov, U.V. G‘afurov	Iqtisodiy o‘shish bevosita yalpi ichki mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko‘payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi[5]
5.	A. Mo‘minov	Iqtisodiy o‘shish deganda bevosita yalpi ichki mahsulot (YaIM) va uning aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi qiymatining ortishi tushuniladi. Agar maqsad mamlakatning iqtisodiy salohiyatini baholash bo‘lsa, u holda YaIM hajmining o‘shish suratlaridan foydalaniladi[6]
6.	Muallif ishlanmasi	Iqtisodiy o‘shish - aholi boshiga to‘g‘ri keladigan mahsulot va xizmatlar hajmining ma‘lum vaqt oralig‘ida o‘shishi ya‘ni odamlar bir-birlari uchun ishlab chiqaradigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning ko‘payishi.

*Tadqiqotchilar va muallif ishlanmasiga asosan shakllantirilgan

Xalqning turmush darajasini oshirish, erkin va farovon hayotni qurishda milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta‘minlash va jamiyat a‘zolarining daromadlarini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy o‘shish muayyan davr mobaynida mamlakatda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish darajasining ijobiy o‘zgarishidir.



“Barqaror iqtisodiy o‘shish” tushunchasi esa uzoq iqtisodiy yo‘lni bosib o‘tgan. Barqaror iqtisodiy o‘shish tushunchasini Robert Solow uzoq vaqt mobaynida tadqiq qilgan va bu tushunchani aniq mohiyatini batafsil yoritib bergan va aynan shu ilmiy ishi uchun Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan. (2-jadval).


2-jadval

Barqaror iqtisodiy o‘shish tushunchasiga turli xil ilmiy yondashuvlar

T/p	Muallif	Ta’rif
1.	Solow R.	O'shish faqat ishlab chiqarish texnologiyalarini doimiy yangilash natijada tugaydigan resurslarni qayta tiklanadigan manbalarga almashtirish va kelajak avlodlar uchun kapitalni saqlab qolish bilan mumkin[7]
2.	Мантуров, Д. В	Barqaror iqtisodiy o'shish - iqtisodiy va ekologik maqsad va vazifalarning uyg'unligi nafaqat YaIM va xususiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishini, balki atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan rivojlanishni ham nazarda tutadi.[8]
3.	MacMillan	Barqaror iqtisodiy o‘shish» tushunchasi milliy iqtisodiyotning shunday bir holatini ifodalashi kerakki, unda salbiy yoki nolga teng bo‘lishi mumkin bo‘lgan real o‘zgaruvchan mezon va ko‘rsatkichlar uzluksiz mutanosib sur’atda o‘shishi lozim[9]
6.	Muallif	Ijtimoiy adolat, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy samaradorlik kabi bir qator o'zgaruvchilarni hisobga olgan holda o'rta va uzoq muddatli istiqbolda ijobiy iqtisodiy rivojlanishga erishish barqaror iqtisodiy o'shish deb nomlanadi.

*Tadqiqotchilar va muallif ishlanmasiga asosan shakllantirilgan

Izlanishlarimiz davomida mintaqaning barqaror iqtisodiy o‘shishiga ta’sir qiluvchi omillarni progressive va regressive omillarga ajratdik. Sababi ushbu omillar natijasida mintaqadagi holat ham oldinga haraklanishi mumkin ham orqaga harakatlanishi mumkin. Bundan tashqari ushbu omillar mintaqaning iqtisodiy holatiga ham imkoniyat bo‘lishi ham tahdid bo‘lishi mumkin.



1-rasm. Mintqaning barqaror iqtisodiy o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar⁴⁰

⁴⁰ Muallif ishlanmasi



Keltirilgan omillarni tushuntirish orqali shuni aytish joizki, o'zining ta'sir ko'rsatish yo'nalishiga ko'ra bitta omilning o'zi salbiy tarafdin ta'sir qilishi ham, shuningdek, ijobiy tomonlama ta'sir ko'rsatishi ham namoyon bo'lishi mumkin. Xususan, mintaqaning innovatsion salohiyati yoki geografik joylashuvi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga yoki aksincha ularning nofaol faoliyati iqtisodiy o'sishga ko'proq salbiy ta'sir etishini omillarning qarama-qarshi harakatini ifodalaydi. Ushbu omillar qatorida geografik joylashuv va ekologik omillar ham alohida e'tiborga olinadi va bu mamlakat va uning mintaqalarini barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda "*Yashil iqtisodiyot*"ni tadbiiq etishning ahamiyatini bevosita ko'rsatadi. Ayni shu maqsadda mamlakat miqyosida yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish va takomillashtirish muhim tus olayabdi, chunki bu ijtimoiy muammolarni hal qilish, iqtisodiy o'sish va tabiiy kapitalni himoya qilish va oshirish o'rtasidagi muvozanatga erishishga yordam beradi.

Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar, olimlar va izlanuvchilarning ilmiy ishlarida, qonun va qonun osti me'yoriy hujjatlarda yashil iqtisodiyot atamasining bir qancha ta'riflari berilgan. Yashil iqtisodiyot past uglerodli, resurslardan tejankor va ijtimoiy inklyuziv sifatida tavsiflanadi. Yashil iqtisodiyotda ish bilan bandlik va daromadning o'sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya va resurslar xizmatlarining yo'qolishining oldini olish

imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyat, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi[10].

Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega. Yashil iqtisodiyot hisobotida ta'kidlanishicha, "yashil bo'lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolati bo'lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o'lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlashni nazarda tutadi"[11]. "Yashil" iqtisod - bu iqtisodiyotning o'zi faoliyat ko'rsatayotgan tabiiy muhitga bog'liqligi g'oyasiga asoslangan iqtisodiy fanning yo'nalishi. "Yashil" iqtisodiyot tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali jamiyat farovonligini oshirishga, shuningdek, yakuniy foydalanish mahsulotlarini ishlab chiqarish tsikliga qaytarishga qaratilgan[12].

Yashil iqtisodiyot - bu ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini baholash va kamaytirish uchun texnologiyalar va mexanizmlarni loyihalash, yaratish va ulardan foydalanish; atrof-muhit holatining turli darajadagi o'zgarishlarini, shuningdek, energiya va resurslarni tejovchi texnologiyalar majmuasi, muqobil



energiya va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishni nazorat qilish.[13]

“Yashil iqtisodiyot - bu tabiat va inson o'rtasidagi iqtisodiy mexanizmni adolatli tashkil qilinishini ta'minlab, faqatgina iqtisodiy o'sish yoki iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki ekologik barqarorlikni hisobga olish, ya'ni mavjud resurslardan foydalanishda tabiatning qayta tiklanish qobiliyatiga zarar yetkazmasdan, aholi turmush darajasini oshirishni va jamiyatning barcha qatlami uchun farovonlikni ta'minlashni maqsad qilgan iqtisodiyotdir”. “Yashil

Ayrim olimlarning ilmiy izlanishlarida qayd etilishicha, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning yo‘nalishlari quyidagilarga ajratilgan [14]:

1. Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish
2. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish.
3. Suv resurslarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish.
4. “Sof”, “barqaror” yoki “yashil transport”ni rivojlantirish.
5. “Yashil mahsulot” va “Yashil xizmatlar” taklifini ommalashtirish.
6. Qishloq xo'jaligida organik dehqonchilikni rivojlantirish.
7. Uy-joy kommunal xo'jaligida energiya samaradorligini oshirish.
8. Ekotizimlarni saqlab qolish va boshqaruv samaradorligini oshirish.
9. “Yashil texnologiyalar”ni yaratish va sotish bozorlarini rivojlantirish.

iqtisodiyot” - bu har qanday iqtisodiy tizimni kamchiligini bartaraf qilishga yordam beradigan yo'nalish hisoblanib, u shunday g'oyani ilgari suradiki, mamlakat iqtisodiyotining o'sishi nafaqat iqtisodiy o'sish yoki YaIM ko'rsatkichi bilan emas, balki ekologik salomatlikni ham hisobga olishi, ya'ni mavjud resurslardan foydalanishda tabiatning qayta tiklanish qobiliyatiga zarar yetkazmasdan, aholi turmush darajasini oshirishni va jamiyatning barcha qatlami uchun adolatni ta'minlashni maqsad qilgan iqtisodiyotdir.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib aytishimiz mumkinki “yashil” iqtisodiyot mintaqa iqtisodiyotini barqaror o'stirishida yuqoridagi richaglaridan foydalangan holda amalga oshirish mumkin. Va aynan shu yo'nalishlarning o'zi mintaqani barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda “Yashil iqtisodiyot”ning ahamiyatini belgilaydi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida: milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyatsiya darajasini



2023 yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish belgilangan[15].

Bunday uzoq muddatli strategik ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni bartaraf qilishda "Yashil iqtisodiyot"ni mamlakat iqtisodiyotiga joriy qilish orqali mamlakatning iqtisodiy tizmining kamchiliklarini ijobiy tarafdagi aylantirish imkonini beradi.

"Yashil" iqtisodiyot jahon iqtisodiyoti uchun inqirozga qarshi innovatsion rivojlanishning yangi global yo'nalishi ekanligi ko'rsatilgan. Ushbu yangicha yondashuv barqaror inson farovonligining haqiqiy yaxshilanishini nazarda tutadi. U eng yangi infratuzilmani barpo etish va turmush farovonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, yuqori haq to'lanadigan ish o'rinlarini ko'paytirishni nazarda tutadi, moliyalashtirish va soliqqa tortishning yangi tamoyillariga o'tishga yordam beradi, ta'lim va fanda inqilob qiladi.

Tahlillar ko'rsatishicha, yer sharida istiqomat qiluvchi aholining har beshtasidan biri yoki 1,2 mlrd. kishi elektrenergiyadan foydalanish imkoniyatidan maxrum. 2,8 mlrd. kishi esa ovqat tayyorlash va yashash joyini isitish uchun daraxt, ko'mir va hayvonlar ahlatidan foydalanishadi. Bu esa uy havosining buzilishi oqibatida har yili 4

milliondan ortiq kishining o'limiga sabab bo'lmoqda. Dunyo mamlakatlari "yashil energetika" sohasini rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani shakllantirishga sarflanayotgan yillik investitsiyalar miqdorini 2030 yilga qadar hozirgi 400 mlrd. dollardan 1,25 trln. dollarga qadar oshirishlari zarur bo'ladi[16].

Insoniyat iste'moli natijasida axlatga aylanayotgan konserva bankalari 8-10 yil davomida tuproqda parchalanishi mumkin. Plastik butilkalar esa quyosh nuri tushganda 150 yilda, agar tuproq ostida bo'lsa 400 yilda chiriydi, polietilen paketlarning chirishi uchun kamida 400 yil kerak bo'ladi. "Coca-Cola", "Fanta" kabi ichimliklarning alyuminiy qutilari 500 yilda yo'q bo'ladi. Shisha idishlar ming yillab yotaverdi. Hozirgi vaqtda muammoning eng dolzarb va oqilona usuli - chiqindilardan ongli ravishda xomashyo sifatida keng foydalanish.

Biz qayta ishlanadigan qog'oz karton, polimerlar, metall, eskirgan maishiy texnikalar, kiyim-kechaklar simobli lampochkalar, termometrlar, batareyalarni saralab, qayta ishlashga beribgina sayyoramizni ko'proq ifloslanishdan saqlaymiz. Qattiq maishiy chiqindilarning tarkibiy qismi 60-80 % qayta ishlashga yaroqli materiallar hisoblanishini ham unutmaylik.[17]



2-rasm. Mamlakat va mintaqalarning iqtisodiyoti yashil iqtisodiyotdan foyda olish yo'nalishlari⁴¹

⁴¹ Muallif ishlanmasi




O'zbekiston har yili 35 mln m³ maishiy chiqindilarni ishlab chiqaradi. Bu taxminan 254 ming vagon. Har bir O'zbekiston fuqarosi har yili 165 kg. maishiy chiqindilarni chiqaradi. Axlal qutilarining o'rtacha 25 foizi oziq-ovqat chiqindilari, 5-10 foizi – qog'oz, 50 foizi – polimerlar, qolganlari – metall, to'qimachilik mahsulotlari, rezina, shisha va boshqalar[18]. Ushbu ko'rsatkichni viloyatlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, 3-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra respublika bo'ylab eng ko'p chiqindi Farg'ona viloyatida hosil bo'ladi va chiqindini qayta ishlashda ham Farg'ona viloyati yetakchi o'rinlarda turadi. Qayta ishlash bo'yicha eng kam ko'rsatkich Toshkent viloyati va Toshkent shahriga tegishlidir, bu viloyatlarda bor yo'g'i 19 foizdan chiqindi qayta ishlanadi.[19]

Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, 2050 yilgacha suv resurslari [Sirdaryo](#) havzasida 5 foizgacha,

Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Boshqa tomondan esa, aholining o'sishi hisobiga, O'zbekistonda 2030 yilga borib, suvga bo'lgan talab 7 mlrd. kub metrga yetishi, 2050 yilga borib esa, bu ko'rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin[20].

Global darajada tadqiq qiladigan bo'lsak Yer sharida har oltinchi kishi ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekmoqda[21]. Hozirgi vaqtda 3,6 mlrd. kishi (er shari aholisining deyarli yarmi) yiliga bir oydan kam bo'lmagan muddatda suv tanqisligi kuzatiladigan hududlarda yashaydi va 2050 yilga qadar ushbu ko'rsatkich 4,8 mlrd. kishidan 5,7 mlrd. kishigacha ortishi mumkin[22].

Quyidagi 3-rasmda O'zbekiston mintaqalaridagi chiqindilarning hosil bo'lishi va ularni turkumlanishi, shuningdek ayni o'sha chiqindilardan foydalanish samaradorligini aniqlash borasida 2021-2022-yillardagi ko'rsatkichlar tahlili keltirilgan.




3-rasm. 2021-2022-yillarda O'zbekistonda maishiy chiqindilarning hosil bo'lishi va ularni qayta ishlash darajasi (viloyatlar misolida)[19]



Qishloq xo'jaligida gebitsidlar, pestitsidlar, zaharli kimyoviy moddalar hamda sun'iy o'g'itlardan foydalanishdan voz kechish taklif etilmoqda. Organik qishloq xo'jaligi global "yashil iqtisodiyot"ning muhim yo'nalishi sifatida dunyoning 178 mamlakatida rivojlantirilmoqda. Organik ishlab chiqarish uchun ajratilayotgan yer maydonlari yildan yilga ko'payib bormoqda. Jumladan, 2019 yilda jahon bo'yicha 70 mln. gektardan ortiq maydon organik qishloq xo'jaligi asosida foydalanilmoqda va ushbu ko'rsatkich jahon qishloq xo'jalik yerlarining taxminan 1,4%ini tashkil

etad[23]. Xususan Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) tadqiqotlariga ko'ra O'zbekiston organik mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yuqori potensialga ega davlatdir[24].

Yashil iqtisodiyotning mintaqada barqaror iqtisodiy o'ishni ta'minlashdagi ahamiyatini tabiiy gaz bilan bog'liq ma'lumotlarda ham ko'rish mumkin. Sababi O'zbekistonda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining qariyb 70 foizga yaqini aynan gaz hisobiga amalga oshiriladi. Lekin O'zbekistonda aynan 2021-yildan so'ng tabiiy gaz qazib olish miqdori sezilarli darajada pasaygan (4-rasm).



4-rasm. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (Yanvar-sentabr oylarida, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da) [25]

Bundan tashqari 4-rasmdagi ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi 2024-yilning yanvar-noyabr davriga ko'ra 593mln dollar qiymatidagi

tabiiy va sun'iy gaz eksportini amalga oshirgan va bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 16foizga oshgan. Lekin 2024-yilning yanvar-noyabr davriga ko'ra



1.552 mln dollarlik gaz importini amalga oshirgan va bu mos ravishda 2023-yilgi import hajmiga nisbatan 2.8 barobar oshganligini ko'rsatadi.[26]

Yuqoridagi ma'lumotlar aynan yashil iqtisodiyotning Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini belgilaydi. Chunki turli xil yondashuvlarni aniqlaydi ya'ni malum miqdorda energiya paydo qilish uchun malum miqdorda yoqilg'i sarflanadi va aynan shunday sarflar atmosferani ma'lum daraja isishiga olib keladi. Xususan, Xalqaro qayta tiklanadigan energiya agentligi ma'lumotlariga ko'ra "Bugungi kunda qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha ishbilarmonlik holati rivojlanmoqda, ammo dunyo 2030 yilgacha har yili o'rtacha 1000 GVt qayta tiklanadigan energiya qo'shishi kerak, bu 2022-yildan uch baravar ko'proq bo'lgan 1,5 °C haroratni saqlab turishi kerak".[27]

O'zbekiston mintaqalari sharoitida yuqoridagi muammolarni hal qilish va yechimlarini izlash mamlakat va mintaqada barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi ustuvor hisoblanadi. Ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotni barqaror holatga keltirish maqsadida YaIM tarkibida "Yashil" iqtisodiyot va uning elementlarining ulushini oshirish masalasi yildan-yilga ortib borishi kuzatilmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash mumkinki, mintaqada yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki yangi ish o'rinlari

yaratish, hududiy investitsion jozibadorlikni oshirish, energetik va resurs mustaqilligini ta'minlash, aholi salomatligini yaxshilash kabi ko'plab ijobiy natijalarni beradi. Mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishini ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik jarayon sifatida Yashil iqtisodiyot mexanizmlarini talqin qilishimiz mumkin, u hududning barqaror iqtisodiy o'sish salohiyatini oshirishga qodir tizim sifatida shakllantirish va uni yashil mahsulotlar yaratish orqali amalga oshirishga asoslanadi.

Mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishining yashil iqtisodiyot mexanizmlari asosan quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

➤ Hududning barqaror iqtisodiy o'sishi mintaqaviy "yashil" muhit sharoitida amalga oshiriladi;

➤ Hududni barqaror iqtisodiy o'sish jarayoni hududda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini tizimli barpo etish bilan rasmiylashtiriladi;

➤ Mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishining asosi - bu shaxsni va butun jamiyatni atrof muhitning ahamiyatini fikrlash va idrok etish qobiliyati;

➤ Hududning barqaror iqtisodiy o'sishining samaradorligi bevosita hududiy "yashil" madaniyatiga, ya'ni "yashil" faoliyatni rag'batlantirishning kompleks tizimiga bog'liq;

➤ Mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sish qobiliyati "yashil iqtisodiyot" elementlaridan kelib chiqib salohiyat darajasi bilan tavsiflanadi.



Ushbu tamoyillarga ko'ra, hududiy va iqtisodiy manfaatlarning o'ziga xos xususiyatlarini, mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish darajasini, texnologik tuzilmalarning o'zaro

bog'liqligini hisobga olgan holda, mintaqaning yashil iqtisodiyot orqali barqaror iqtisodiy o'sishining tashkiliy-iqtisodiy modelini qurish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi
2. Smith, A. *The Wealth of Nations* [1776] / A. Smith. – A Translation into Modern English. – ISR Publications, 2015. – 640 p.
3. Simon Kuznets, *Modern Economic Growth: Rate, Structure, and Spread*, Yale University Press, New Haven, Conn., 1966, pp. 1-16.
4. O'lmasov A., Vaxobov A. *Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: Iqtisodmoliya, 2014.*
5. Jumaniyozov, F. (2024). Yashil iqtisodiyot. Универсальный индекс библиотеки молодых ученых, 2(29), 115-117.
6. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekiston iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning Yangi va yuksak bosqichi yo'lida. -T.: Iqtisodiyot, 2008. – 126 b.
7. Mo'minov A. «Iqtisodiy o'sish va uning omillari nimalardan iborat» //O'zbekiston ovozi. 20.05.2016 y
8. O'G'Li, J. F. D. (2024). Yashil iqtisodiyotga o'tishda chiqindilarni boshqarish va ulardan samarali foydalanish masalalari. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 3(10), 115-121.
9. Solow, R. M. (1993). Sustainability: An economist's perspective. *Economics of the environment: Selected readings*, 3, 179-187.
10. Мантуров, Д. В. (2018). Устойчивый экономический рост: аспекты гармонизации промышленной и экологической политики России. *π-Economy*, 11(4), 132-140.
11. Словарь современной экономической теории Макмиллана – М.,1997.с. 471.
12. Jumaniyozov, F. (2024). Opportunities to create new jobs in the context of the transition to a 'green' economy. *University Research Base*, 264-267.



13. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication – A Synthesis for Policy Makers. – Paris: United Nations Environment Programme, 2011. – pp. 33-34.
14. Иванова Н.И., Левченко Л.В. "Зеленая" экономика: сущность, принципы и перспективы // Вестник Омского университета. Серия: Экономика. 2017. № 2(58). С. 19-28.
15. Порфирьев Б.Н. Природа и экономика: риски взаимодействия (эколого-экономические очерки) / под ред. В.В. Ивантера. М.: Анкил, 2011. 352 с.
16. Н.И. Иванова и Л.В. Левченко выделяют следующие направления реализации «зелёных» технологий [3, с. 20-21]
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son)
18. Jumaniyozov, F. (2025). Mintaqada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashda yashil mehmonxonalar ahamiyati. University research base, 272-275.
19. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. <https://www.uznature.uz/uz/site/page?numer=1185>.
20. Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasidagi ma‘lumotlar <https://nsdg.stat.uz/uz/goal/15>.
21. Center fo progressive reforms <https://proreforms.uz/uz/publications/ozbekistonda-chiqindilarni-boshqarish-va-tizimni-rivojlantirish-uchun-nima-qilish-kerak-172>.
22. O‘zsvuta‘minot Aksiyadorlik jamiyati <https://uzsuv.uz/ru/posts/844>.
23. Кушнаренко А. Дефицит пресной воды: проблемы и способы решения // The WALL magazine. – URL : <http://thewallmagazine.ru/lack-of-fresh-water/>.
24. Всемирный доклад Организации Объединенных Наций о состоянии водных ресурсов, 2018 г.: Природные решения проблем управления водными ресурсами. Рабочее резюме <http://unesdoc.unesco.org/images/0026/002615/261594r.pdf>.
25. <https://www.ifoam.bio/global-organic-area-continues-grow>.
26. <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/531fae12-2984-4825-8ceb-fcb707decf8e/content>.
27. https://stat.uz/img/press-reviz-yanvar-sentabr-uzb_p32286_p94301.pdf
28. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/58952-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2024-yil-yanvar-noyabr>
29. <https://www.irena.org/News/pressreleases/2023/Aug/Renewables-Competitiveness-Accelerates-Despite-Cost-Inflation>